

JONDOR TUMANI TOPONIMIYASIDA NOM YASALISH MASALALARI

Narzilloeva Manzura Shuxrat Qizi


Zarmed Universiteti O'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola Buxoro viloyatining Jondor tumani hududida joylashgan toponimlarning yasash masalasiga bag'ishlangan. Mavzu mazmunini yoritish uchun toponimlarning vujudga kelishida yangi nom yasash usuli, qo'shma va birikmali joy nomlarining yasash xususiyatlari kabilar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Buxoro, Jondor, toponim, mikrotoponim, onomastika, geologiya, lingvokulturalogiya

Toponimika fani uzoq tarixga ega fanlardan biridir. Bu onomastika fani doirasiga kiradigan muhim sohalaridan hisoblanadi. Toponimika fani geografiya, geologiya, tarix, tilshunoslik va etnografiya fanlarining tutashgan nuqtasida paydo bo'lgan va ular bilan chambarchas aloqada bo'lib rivojlanadi. Dunyo tilshunoslik maktablarida toponimik birliklarning lingvistik, ijtimoiy, tarixiy, sotsiolingvistik xususiyatlari masalasiga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Hozirgi kunda muayyan toponimik birliklarni to'plash, ularni an'anaviy va zamonaviy yondashuvlari asosida tahlil qilishga talab ortmoqda. Toponimlarning muayyan obyektni nomlash xususiyatlarini tahlil etish, ularning lingvokulturologik va kognitiv-pragmatik xususiyatlarini ilmiy tekshirish amaliy ahamiyat kasb etadi. Binobarin, zamonaviy tilshunoslikda toponimlarni til xususiyatlari, sheva elementlari, atamalarga oid jihatlarini mazmun tomoni bilan bog'liqlikda o'rganish, izchillik asosida mavzuviy guruhlarini aniqlash, shuningdek, morfemik va adabiy tilda hamda shevalarda qo'llanilishining o'ziga xos jihatlarini bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar, chiqarilgan nazariy xulosalar soha taraqqiyotini ta'minlaydigan muhim omillardan hisoblanadi. Muayyan mahalliy hudud joy nomlarini ifodalovchi oykonim, oronim va gidronim kabi toponimik ko'lamning barcha birliklari genezisi, etimologik va lingvistik xususiyatlarini mahalliy aholining ijtimoiy, tarixiy, madaniy boyliklari to'g'risidagi axborotlar asosida tadqiq etish kun tartibiga qo'yildi. Jondor mikrotoponimikasining ma'naviy xususiyatlari shakliy xususiyatlari bilan uyg'un holda tahlil qilinganda mikrotoponimlarning tuzilishiga ko'ra turlariga alohida ahamiyat beriladi.

Toponimiya til lug'at tarkibining ajralmas qismlaridan biri sifatida ma'lum o'zgarishlarga uchrab turadi. Toponimiya jamiyatning ijtimoiy hayoti, mafkurasi va ma'naviyatiga yaqin aloqada bo'lgan lug'aviy qatlam bo'lgani uchun millatning siyosati, jamiyatning dunyoqarashida yuz beruvchi yangilanish va o'zgarishlar mavjud joy nomlarini doimo baholash, qayta baholashga olib keladi. Bunga yaqqol misol sifatida



O'zbekiston davlatining mustaqillik davrida olib borayotgan toponimik siyosatini keltirish mumkin. Ushbu siyosat tufayli O'zbekistondagi joy nomlari tarkibida ulkan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Sho'rolar davri g'oyalari bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina nomlar iste'moldan chiqdi, aksincha, o'sha davrlarda kommunistik mafkura tazyiqi ostida siqib chiqarilgan, unutilishga yuz tutgan ko'pgina tarixiy, milliy hamda o'zbekona, xalqona nomlar qayta tiklandi. Shuningdek, o'zbek toponimiyasi tizimi mustaqillik davri ideallarini, intilishlarni ifoda qiluvchi yangi nomlar bilan boyidi. Har qanday tilning toponimik tizimi ma'lum bir davrninggina, ma'lum bir ijtimoiy-siyosiy qarashlarninggina mahsuli emas. Toponimiya tizimi til onomastik sistemasining ko'p asrlik rivoji mahsulidir. Shu sababli, o'zbek toponimiyasi tizimida eng qadimiy tarixiy toponimlar, yaqin o'tmish toponimlari, yangi davr toponimlari va tamoman yangi toponimlar yonmayon yashamoqda. Ushbu holat Buxoro shahri Jondor tumani mikrotoponimiyasi tizimi uchun ham tegishli. Albatta, toponimiya tizimidagi barcha nomlarning qachon paydo bo'lganini aniq belgilashning iloji yo'q. Chunki ko'pgina nomlarning qachon va kim tomonidan berilgani hozirda unutilgan. Shu sababli joy nomlarining ijodkori xalq, deb baholanadi hamda bunday nomlar tabiiy toponimlar, xalqona nomlar deb yuritiladi. Nomlarning paydo bo'lish tarixi va asoslari unutilsa-da, har qanday toponimning til mahsuli sifatidagi xususiyatlari saqlangan bo'ladi. Bu ko'pgina nomning yasalishi va grammatik strukturasini tahlil qilish orqali belgilanadi. Ayniqsa, iste'moldan chiqqan nomlar o'rnini to'ldirish, yangi obyektlarga yangi nomlar berish muayyan lisoniy qonuniyatlar asosida amalga oshadi. Bunda ikki yo'l ko'zga yorqin tashlanib turadi:

1. Yangi nom yasash usuli.
2. Qo'shma joy nomlarini yasash usuli.
3. Birikmali toponimlarni yasash usuli.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бегматов Э. Жой номлари – маънавият кўзгуси. –Тошкент, 1998. – Б.33-34.
2. Охунов Н. Топонимия кокандской группы районов: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Т., 1978. – 23 с.
3. Мингбоев Н. Топонимия Мирзачуля (Историко-лингвистический анализ): Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Баку, 1988. – 21 с.
4. Дўсимов З. Топонимларнинг ясалиши масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1980. – 2-сон. – Б.45